

BUGUNGI KUNDA TALABALARDA MILLIY MAFKURANI SHAKLLANTIRISHDA TARIXIY KOMPONENTLARNING O’RNI VA ROLI

**G’anijonova Dilafuz Noiljon qizi
Andijon davlat pedagogika instituti o’qituvchisi**

Annotatsiya: Maqolada yoshlarga tarix fanini o’rganish borasidagi olib borilayotgan islohotlar, O’zbekiston Respublikasida yoshlarning tarixiy savodxonligini oshirish masalalariga ilmiy jihatdan to’xtalib o’tilgan, hamda xulosa va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so’zlar: Tarix, O’zbekiston, tarixiy savodxonlik, mustaqillik

Bugun o’zining turli xil, rang-barang o’zgarishlari bilan, dunyo ahlini hayrat va tashvishga solib kelayotgan global muammolar, insoniyatni bir talay sinovlar girdobiga tashlamoqda. Dunyoning qaysi bir mintaqasida tabiiy ofatlar avj olib insoniyat ushbu ofatlarning og’ir azob va uqubatlarini tortib kelayotgan bo’lsa, ayrim mintaqalarida esa odam savdosi, ekstremizm va terrorizm, qurol savdosi, narkomaniya, ijtimoiy tengsizlik, gender muammolari avj olayotganligi dunyo hamjamiyatini chuqur o’yga solmoqda. Binobarin, xalqaro hamjamiyatni, xalqaro tashkilotlarni o’yga solib kelayotgan bunday zo’ravonliklarga qarshi kurashishda, ma’lum bir tashkilotlar yoki gegemon davlatlar emas, balki butun insoniyatni o’zi o’zining qadr-qimmatini, huquq va erkinligini ta’minlash uchun kurashishi kerak ekanligini ko’rsatmoqda.

Bu esa, biz oldimizga qo’yan maqsad, xalqparvar davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini qurish yo’lidagi islohotlarimizni amalga oshirishimizda bir talay qiyinchiliklarni tug’dirmoqda.

Mustaqillik yillarida O’zbekiston olimlarining samarali tadqiqotlari natijasida milliy tariximizning ilgari noma’lum bo’lgan sahifalari ochildi, tarixiy o’tmishimizning ko’p jihatlari kashf etildi. Natijada tarix fani – xalqqa jamiyatning ma’naviy taraqqiyotiga xizmat qilishdek azaliy vazifasini qayta tikladi. Milliy mafkura va ma’naviy-axloqiy barkamollikni shakllantirishda tarixiy komponentlarni o’rni beqiyos ekanligi o’z isbotini topdi. Tarix fanining ta’limiy va tarbiyaviy vazifasi ham aynan mana shu komponentlarni yoshlarda shakllantirishga xizmat qiladi. “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ga, 2021-2025 – yillarga mo’ljallangan “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi”ga muvofiq ta’lim bosqichlarining uzluksizligi va izchilligini ta’minlash, ta’limning zamonaviy metodologiyasini yaratish xamda ular asosida bo’lajak tarix o’qituvchilarini kasbiy kompetentligini oshirishni taqozo etadi. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga ko’ra 2017-2021- yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasi taraqqiyotning yangi bosqichini boshlab berdi. Unga ko’ra uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, shuningdek bu borada pedagog va mutaxassislarining malaka darajasini yuksaltirishga katta ahamiyat berilgan.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning “Milliy taraqqiyot yo’limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz” nomli asarida “Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og’ishmasdan, qat’iyat bilan davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko’taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo’lib, dunyo miqyosidan o’z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo’sh kelmaydigan insonlar bo’lib kamol topishi, baxtli bo’lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”, — degan fikri bugungi kunda ta’lim tarbiyaga davlat siyosati darajasida e’tibor berilayotganidan dalolatdir. Binobarin, mamlakatimizning taraqqiy etishi, rivojlanishi, jahon hamjamiyatida tutgan o’rni,

kelajagining kafolatlari bugungi kundagi yoshlarimizning qay darajada tarixiy bilimdonligi, milliy ongining yuksakligi va tarixiy madaniyatiga bog’liqdir. Shuningdek, Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyevning “Milliy taraqqiyot yo’limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz” asarida O‘zbekiston o‘qituvchi va murabbiylariga tabrigida, “... ayni paytida bugungi kunda oldimizda yanada muhim va dolzarb vazifalar turganini hammamiz yaxshi tushunamiz. Shu borada ilm-fan va ta’lim – tarbiya sohasining moddiy texnik bazasini yanada mustahkamlash, uning nafaqat davr bilan hamohang bo’lishini, balki zamondan oldinda yurishini ta’minlash, pedagog kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning ilg’or usullaridan keng foydalanish, bu ishlarni xorijdagi nufuzli markazlar bilan hamkorlikda olib borish, sohaga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, o‘qituvchi va domlarning mashaqqatli va mas’uliyatli mehnatini har taraflama rag‘batlantirish bilan bog’liq vazifalarni amalga oshirish, qisqa qilib aytganda, hayotimizga katta kuch bilan kirayotgan yangi avlodimizni kamol toptirish uchun davlatimiz tomonidan barcha imkoniyatlar safarbar etiladi”.

Tarixni o‘rgatish yoshlarga milliy g‘oyani singdirish va ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, hozirgi zamon taraqqiyotining asosiy tendensiyalari va ziddiyatlari mohiyatini to‘g‘ri tushunishga tayyorlashning muhim vositasidir. Ushbu masalani yanada takomillashtirish, nafaqat o‘zib kelayotgan yoshlarni, balki yurtimizdagi barcha fuqarolarning ham tarixiy qadriyatga ega bo’lishini ta’minlovchi tizimni yaratish maqsadida 23-sentyabri 2020-yildagi O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risida qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunni qabul qilishdan maqsad, avvalo yoshlar o‘rtasida tarixiy ta’lim va tarbiya tizimini yaxshilash, o‘qituvchi yoshlarni yurtimiz tarixiga hurmat bilan munosabatda bo‘lishlariga erishish, yoshlarimizning milliy qadriyatlari va madaniyatini oshirishdan iborat.

Shunday qilib, tarix fanini o‘qitish talabalar milliy ongini o‘stirish, ularni milliy g‘urur va iftixor, vatanparvarlik, insoniylik, yuksak ma’naviyat kabi oliyjanob an’analar ruhida tarbiyalashda bitmas-tuganmas imkoniyatlarga egadir. Demak, ta’lim va o‘qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida ta’lim muassasalarining sifati hamda samaradorligini oshirish bugungi kunning davlat siyosati darajasida turgan asosiy masalalardan biridir. Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirishda mustaqil fikrlashga katta e’tibor berilishi – davlatning ustuvor vazifalaridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari/ Nashrga tayyorlovchilar: M. Bekmurodov, Q. Quronboyev, L. Tangiyev. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – B. 70-72.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo’limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz. I jild. – Toshkent: O‘zbekiston, NMIU, 2017. – B.146.
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo’limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz. – Toshkent, O‘zbekiston, 2018. – B. 24-25.
4. Nematov, O. (2018). Historical and religious monument of muhammad sharif (Mevlanagrekushoh). Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 7(9), 448-452.
5. Odilov, B. A., & Karimov, N. R. (2020). Analysis of Targeted Research in 20-30 Years of the XX Century. PalArch’s Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology, 17(6), 8887-8893.
6. Дониёров, А. Х., & Каримов, Н. Р. (2018). " КИТАБ АЛ-ХИКМА" И" ХИКМА" В НАУЧНОМ НАСЛЕДИИ ХАКИМА ТИРМИЗИ. In лучшая научная статья 2018 (pp. 48-52).
7. Karimov, N. R. (2019). SOME BRIEF INFORMATION ON AL-SIHAN ALSITTA. Theoretical & Applied Science, (5), 611-620.

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

8. Karimov, N. R. (2018). Some researches on Abu Isa Tirmidhi in European countries. *International Journal of Current Research*, 10(12), 76170-76173.
9. Mavlyanov, U. N. (2021). FAHRUDDIN ALI SAFI’S TEACHING ABOUT BEING. *Bulletin of Gulistan State University*, 2021(2), 61-67.
10. Davlatova, K., & Nematov, O. (2021). TRADITIONAL CLOTHES OF JIZZAKH PEOPLE. *Theoretical & Applied Science*, (5), 366-369.
11. Mavlyanov, U. (2022). ABOUT “THE ART ACADEMY OF BAYSUNKUR”. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(06), 133-138.